

## **BOLALAR SEREBRAL FALAJLIGI (BSF)**

Fayzullayeva Sitora Toshpo'lat qizi

JDPU pedagogika va psixologiya fakulteti

Maxsus pedagogika (logopediya ) yo'nalshi talabasi

Telefon: +998915667254

### **ANNOTATSIYA:**

ushbu maqolani yozishdan maqsad harakat tayanch a'zolarida nuqsoni bo'gan bolalar yani bolalar serebral falaji (BSF) kasalligiga uchragan bolalar bilan pedagogik va korreksion ishlarni olib borish jarayonini yaxshilash , ularning psixologik holatini ham inobatga olgan holda har bir bolaning nuqsoniga individual yondashib ular bilan logopedik mashg'ulotlarni olib borish.

**KALIT SO'ZLAR:** tayanch, a'zolar , serebral falaj, korreksion , pedagogik , indivudal , logopedik , psixologik

### **АННОТАЦИЯ:**

целью написания данной статьи является совершенствование процесса проведения педагогической и коррекционной работы с детьми с нарушениями работы основных органов движения, то есть детьми с детским церебральным параличом (ДЦП), с учетом их психологического состояния и с использованием индивидуального подхода. к инвалидности каждого ребенка. Проводить логопедические занятия.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** поддержка, органы, детский церебральный паралич, коррекционный, педагогический, индивидуальный, логопедический, психологический.

### **ABSTRACT:**

The purpose of writing this article is to improve the process of conducting pedagogical and correctional work with children with disabilities in the basic organs of movement, i.e. children with cerebral palsy (BSF), taking into account their psychological state and taking an individual approach to each child's disability. conduct speech therapy training with.



**KEYWORDS:** support, organs, cerebral palsy, correctional, pedagogical, individual, logopedic, psychological

Respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish vatarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi " Qonuni (23-modda) va davlat tomonidan 1992 -yilda ratifikatsiya qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (23-modda)da nogiron bolalarni alohida parvarishlash , ta'limdan foydalanish, munosib turmushkechirish huquqlariga egaligi e'tirof etilgan .Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida "ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA"gi qarori qabul qilindi.Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat.Shu bilan birga, inklyuziv tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birgalikda oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.Bolalar serebral falaji : bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligi hisoblanadi. Bolalar serebral falaji kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: surunkali kasalliklar, homilaning erta yoki kech tug'ilishi, infeksiya kasalliklar, homiladorlik vaqtida turli xil jarohatlanishlar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha to'g'ri kelmasligi, bundan tashqari genetik faktorlar ham asos bo'la oladi.Bolalar serebral falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki, u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'ziga o'zi xizmat qilishni qiyinchilik bilan egallaydilar.Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarda asosan ularning



tayanch hamda nutq a'zolarida kamchiliklarni ko'rshimiz mumkin. Bolalar serebral falaji perinatal davirda bosh miyaning turli xil strukturalarda bo'ladigan o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan harakat doirasidagi patologiyalar bilan kechadigan umumiy tushunchadir. Bolalar serebral paraliji mono-, gemi-, para-, tetraparalich va parezlar, mushak tonusdagi patologiyalar, gipperkinez, nutqdagi kamchiliklar, harakat kordinatsiyasi buzilishi, bolaning motorik va ruhiy jihatdan rivojlanishdan orqada qolish bilan kechadi.

Dunyodagi 700 million aholining 10% i nogironlardir. Shular qatorga mujassam nuqsonli anomal bolalar ham kiradi. Mujassam nuqsonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi. Ular kompleks nuqsonli anomal bolalar kategoriyasi deb ataladi.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji poliomeelit (shol kasaligi alomatlari) harakat tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi, artropripoz, oyoq qo'llarning majruxligi, axondroshgaziya yoki xondrodstrofiya -tana, bo'yin, boshning normal rivojlanayotgan bir paytda tug'ma oyoq qo'l suyaklar o'sishining orqada qolishi, miopatiya mushak to'qimalarda moddalar almashinuvi bilan bog'liq bo'gan irsiy kasalliklar, mushaklar yaxshi qisqarmaydi va kishi qo'l oyoqlarini harakatga keltira olmaydi.

Bolalar serebral falaji (BSF) – bosh miyani xomiladorlik va tug'ruq vaqtida jarohatlanishi yoki rivojlanmay qolishi xisobiga kelib chiqadigan juda ko'p kasalliklarni o'z ichiga oluvchi kasalliklar guruxidir. Bu kasalliklarda quyidagi umumiy sabab va belgilar kuzatiladi:

- Perinatal (tug'ruq atrofida) davrda yuzaga keladi – ya'ni kasallik rivojlanishi tug'ruqdan oldin, tug'ruq vaqti yoki tug'ruqdan keyin yuzaga keladi.
- Bosh miya va orqa miya to'qimasini alohida yoki birgalikdagi organik shikastlanishi.
- Ko'proq harakat tizimida buzilishlar kuzatiladi. Bundan tashqari muvozanat, ko'rish, nutq va ruhiy buzilishlar xam kuzatiladi.
- Surunkali va progressivlanmaydigan («zo'raymaydigan», «kuchaymaydigan») kechadi. «Soxta progressiya» – degan tushuncha xam mavjud bo'lib, bunda bola o'sishi davomida unda ilgari kuzatilmagan yashirin belgilar



paydo bo'la boshlaydi. Bunga odatda miyaga qon quyilishi, insult, epilepsiya va tananing boshqa kasalliklari sabab bo'ladi.

- Irsiyatdan berilmaydi va yuqumli emas.
- Reabilitatsiya qilish imkoni mavjud. Reabilitatsiya oqibatida bemorning yashash darajasini va ijtimoiy xolatini yaxshilash imkoni yuqori.

### **Bolalar serebral falajligining sabablari nimalar?**

• Olimlar bu kasallikka olib keluvchi 100 dan ortiq sabablarni keltirib o'tgan. Ulardan ba'zilarini keltiramiz:

• BSF bemorlarning 40-50% i vaqtdan ilgari tug'ilgan bolalardir. Ularda a'zolar yaxshi rivojlanmaydi va bosh miyaga kislorod yetishmay gipoksiya ro'y beradi.

- 10% gacha xolatda tug'riq vaqtidagi asfiksiya(bo'g'ilish)ga to'g'ri keladi.
- Yana bir asosiy sabab – onadagi infeksiyalar bo'lib, ularning toksik ta'siri natijasida bola bosh miyasi rivojlanmay qoladi.
- Rezus konflikt – bola va ona qonidagi rezus omillarning mos kelmasligi.
- Xomilaning kattaligi yoki onadagi tor chanoq.
- Yo'ldoshni vaqtdan oldin ko'chishi.
- Tug'ruq vaqtida – xomila atrofi suvini vaqtli teshib qo'yish, dori-darmon bilan tug'ruqni tezlatish, bolani noto'g'ri kelishi va b.
- Tug'ruqdan keyin – bosh miyani zararlovchi og'ir infeksiyalar(meningit, entsefalit), og'ir metal bilan zaharlanish(simob), bosh miya travmalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Bosh miyyadagi harakat markazlarning jarohatlanish darajasi , xususiyatlariga ko'ra, bolada harakat tayanch a'zolarining turli xildagi falajlanshi kelib chiqadi. Shunga ko'ra bu toifadagi nuqsonli bolalar quydagicha klassifikatsiyalanadi.

Uning bir nechta turlari mavjud:

1. Spastik turi (Littl kasalligi) – eng ko'p tarqalgan bo'lib, jami kasallarning 40% iga to'g'ri keladi. Chala tug'ilganlarda ko'proq kuzatiladi. Bolaning birinchi yoshida belgilari ko'zga ko'rinadi. Ularda spastik tetraparez, ya'ni qo'l va oyoqda «tortishish» bo'lib, oyoqlarda kuchliroq kuzatiladi.
2. Ikki tomonlama gemiplegik shakli – bu og'ir shakllardan biri bo'lib, 2% gacha uchraydi. Bolaning birinchi oyligidan o'z belgalarini bera boshlaydi. Bunda xam oyoq va qo'llarda parez bo'ladi lekin bir tomonda kuchliroq kuzatiladi.



3. Giperkinetik shakli – 10% xolatda uchraydi va xoxishsiz harakatlar xamda nutq buzilishi ko'proq kuzatiladi. Kasallik belgilari bolaning birinchi yoshi oxiri va ikkinchi yoshining boshida yuzaga chiqadi. Bemorning qo'li, oyog'i, yuz mushaklari va bo'yni o'z-o'zidan, xoxishsiz harakatlanadi. Bu harakatlar bolaning xissiyotli xolatlarida kuchayib ketadi. Gapisirishi kechroq boshlanadi. Nutqi sekin, tushunarsiz va monoton bo'ladi. Ularda aqliy rivojlanish me'yorda bo'lib, maktabni xatto institutlarni xam a'lo baxolarga tugatishi mumkin.

4. Atonik-astatik turi – 15% xolatda uchraydi. Ularda tug'ilgandan boshlab gipotoniya (tonusi past) bo'ladi. Bolaning o'tirishi, turishi va yurishi ancha kech qoladi. Muvozanati buziladi va odatda qo'l-oyoq, boshda tremor (qaltirash) kuzatiladi.

5. Gemiparetik shakli – 32% xolatda uchraydi. Tananing bir tomonidagi qo'l va oyoqda kuzatiladi. Bu shaklni bola tug'ilishi bilan aniqlash mumkin. 40-50% xolatda tutqanoqlar uchraydi.

Serebral falajlikning barcha turlarida o'ziga xos bo'lgan nuqsonlarni ko'rishimiz mumkin. Bolalar serebral falajida olib boriladigan logopedik ishning maqsadi artikulatsion apparati hamda harakat sezgilarini rivojlantirishdan iborat. Artikulatsion harakat sezgilarini yaxshilash uchun olib boriladigan mashg'ulotlar oyna yordamida harakatlarni ochiq ko'z bilan ko'rish kuzatish va harakatlarini yopiq ko'z bilan diqqatli bo'lib, his etish kabi mashqlar bosqichma -bosqich qo'llaniladi. Logopedik ish bolaning shunday holatida o'tkaziladiki, tonik reflekslar nutq matorikasiga deyarli ta'sir o'tkazmasligi talab etiladi. Bu holat nevroptolog va logoped hamkorligida amalga oshiriladi. Agard bola logopedik mashg'ulot o'tilayotganda o'tirgan holatda bo'lsa, diqqatni uni boshini harakatiga qaratish zarur. Ba'zi holatlarda bosh maxsus apparat yordamida ushlab turiladi. Mashg'ulot o'tkazilayotganda oyna va logopedning yuzi bola ko'zi chizig'ida joylashtiriladi. Bola uchun zarur holat tanlangandan so'ng massajga hamda artikulatsion muskulatura gimnastikasiga o'tiladi. Bolalar serebral falajidagi dizartriyaning o'ziga xos tomonlari bu umumiy va nutqiy matorikaning buzilishi, dizartriyaning turli shakllari bolalar serebral falajini ma'lum bir shakllari bilan bog'liqligidir. Ishni tayyorlov davrida umumiy muskullarni bo'shashtirish va nutq muskulaturasidagi tonusni kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Bolalar serebral falajida artikulatsion matorikaning buzilishini o'ziga xos tomonlaridan biri og'iz avtomatizmi bilan bog'liq tug'ma



reflekslarni qayta rivojlanishidagi to'xtab qolishdir. Bular: so'rish, yutish reflekslari, tishlash va boshqalardir. Bu reflekslar namoyon bo'lishi ixtiyoriy artikulatsion harakatlarni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolalar serebral falajida dizartriya bolalar turli harakatlarni bajarganlarida umumiy va nutq muskulaturasida muskul tonusining oshganligi ularning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlar vaqtida bunday bolardan haddan tashqari kuch talab etilmaydi. Chunki, bu narsa muskul tonusining ortishiga va tovush talaffuzining buzilishining kuchayishiga olib kelishi ham mumkin. Nutqiy nafasni rivojlantirish uchun puflashga oid turli mashqlar tavsiya etiladi. Lekin, kichik yoshdagi serebral falajligi bo'lgan bolalar uchun bu mashqlar har doim ham foydali bo'lmaydi. Negaki, ular bu mashg'ulotni bajarishda haddan tashqari kuch ishlatishlari mumkin. Bu esa umumiy muskul tonusining ortishini kuchaytirishi mumkin. Bola lug'atini rivojlantirish uchun bolaning amaliy va hissiy tajribasini kengaytirishga qaratilgan dastlabki korreksion tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq faol ravishdagi predmet amaliyot harakatlarini shakllantirishga intilishi zarur. Logoped bolaning onasini bola bilan birgalikda bo'ladigan o'yinlarga jalb qilishi lozim. Bu jarayonda esa uning nutqi avvalgiga nisbatan birmuncha rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytganda, "Serebral falajlanish nuqsoniga ega bolalar" bilan lug'atni shakllantirish bo'yicha ishlar bosqichma -bosqich amalga oshirib borilishi lozim. Birinchi bosqichda bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajariladigan ishlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu o'rinda bolaning e'tiborini jalb qilishga va uning javob reaksiyasini qo'zg'atishga yordam beradigan bir qator usullar qo'llaniladi: ya'ni predmetni kutilmaganda, ya'ni to'satdan paydo bo'lib qolishi yoki yo'qolishi, uning harakati. Shunday qilib serebral falajligi bo'lgan bolalar leksikasini takomillashtirish va boyitish predmet -amaliy va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda olib boorish zarur, shuningdek, sensor funksiyalarini rivojlantirish va ularning korreksiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog'lagan holatda tashkil qilishni ko'rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. D.R.Madazizova " Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari "T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati "nashriyoti 2018
2. M.U. Xamidova . Maxsus pedagogika .- T.; “Fan va texnologiya “ 2018
3. P.M Po’latova Maxsus pedagogika ( oligofrenopedagogika ) G’. G’ulomova .
4. Maxsus pedagogika Toshkent -“ fan va texnologiya “ 2014-yil . Ayupova
5. Avitsenna uz.
6. Bolalar serebral falaji (BTsF) – qanday kasallik -Milliy Tibbiyot Portali (medikuz.uz)

